

Odning qasrlari



15:00 / 26.12.2020 2821

Odning yeb-ichish, bekorchilik va o'yin-kulgudan boshqa ishlari yo'q edi. Bir-birlariga, baland qasrlar va keng uylarni qurishda maqtanishar edi. Ularning mollari suvda, loyda va toshlarda zoe bo'lib ketar edi. Biror bo'sh joy yoki baland yerni ko'rsalar, u yerga baland qasr qurardilar. Uylarni, xuddi unda abadiy yashaydigan, hech qachon o'lmaydigandek qurardilar. Qasrlarni, ehtiyoj bo'lmasa ham behudaga qurardilar. Vaholanki, insonlar, yeydigan va kiyadigan narsa topa olmas edi. Ularning kambag'allari o'zlari yashashlari uchun uy topa olmas edi. Boylarning uylarida esa, yashash uchun kishi topilmas edi. Ularni va qasrlarini ko'rgan kishi, od qavmi oxiratga iymon keltirmaganini bilar edi.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad